

AMIR TEMUR AND THE TEMURID STATE IN WORLD HISTORY

Asrorov Doniyor Odiljon oghli

Named after Sharof Rashidov Samarkand State University

2rd year student of the Faculty of History.

doniyorasrorov13@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the role of Amir Temur in the history of Central Asia, his work in public administration, domestic and foreign policy.

Keywords: Central Asia, history of statehood, domestic and foreign policy of Amir Temur, diplomacy, historical sources.

АМИР ТЕМУР И ГОСУДАРСТВО ТЕМУРИДОВ В МИРОВОЙ ИСТОРИИ

Асроров Дониёр Одилжон угли

Самаркандский государственный университет по имени Ш.Рашидова

студент 2 курса Исторического факультета

E-mail:doniyorasrorov13@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль Амира Темура в истории Средней Азии, его деятельность в сфере государственного управления, внутренней и внешней политики.

Ключевые слова: Центральная Азия, история государственности, внутренняя и внешняя политика Амира Темура, дипломатия, исторические источники.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI JAHON TARIXIDA

Asrorov Doniyor Odiljon o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tarix fakulteti 2 -bosqich talabasi

E-mail: doniyorasrorov13@gmail.com

Davlatchilik nuqtai nazaridan kelib chiqib, jannatmakon o‘lkamizda mavjud bo‘lgan va jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, sultanatlar, podsholiklar, xonliklar bisyor bo‘lganligini juda yaxshi bilamiz. Bularning ichida yurtimizda va jahonda hali ham e’zolanib kelayotilgan, Temuriylar davlatchiligining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu ulkan davlatga Temurbek asos soladi. Ana endi so‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun o‘sha davrlarga manbalar orqali bir nazar tashlaymiz. XIVasr ning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og‘ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli davlat tashkil etishni taqozo etardi. Amir Temur bunday vaziyatni juda yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda Temur Tuzuklarida qayd etilganidek 12 ijtimoy toifa vakillariga suyanadi. Nizomiddin Shomiyning dalolaticha: Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji barlos Tug‘luq Temurning Movarounnahraga bostirib kelayotgan eshitgach Xurosonga qochadi. Endigina 25 yoshda bo‘lgan Temur kerayit qabilasidan bo‘lgan Amir Hamid yordamida Tug‘luq Temur huzuriga borib Kesh boshqarish huquqini qo‘lga kiritadi.[1:33-b]

Ilyosxo‘ja va Temur o‘rtasidagi janglarda Temur g‘aliba qozonib Movarounnahr hukmronligi uchun birinchi qadamni qo‘yadi.[2:134, 167,169-b] Amir Temur o‘z davlatini poytaxti etib dastlab Keshni tanlab devon qurdiradi, muazzam Oqsaroy qurilishi boshlab yuboriladi ammo Samarqand qulay geografik markaz bo‘lgani uchun poytaxt etib Samarqandni tanlaydi.[3:108-b] Davlat chegaralari kengaytirilib, 1371-

yilda Shibirg‘on egallanadi. 1381-yilda Hirot, Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo‘ladi. 1381-1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Birinchi Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal’alari, 1384-yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlarini bo‘ysundiradi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom ustiga 3 marta lashkar tortadi. Bu yurishlar tarixda “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” urushlar nomi bilan mashhur. Amir Temur To‘xtamishni quvib, Ryazan viloyatigacha bordi va Yelets shahrini ishg‘ol qildi. Bu xususida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday guvohlik beradi: Sohibqiron Maskavga sorikim, Rusning shaharlaridan erdi, tavajjuq qildi. Anda yetkonda nusratshior cheriki ul viloyatni chobtilar va andag‘i hokimlarni tobe’ qildi. Va cherikning eliklariga sonsiz mol tushti. [4:189,278-b]

Bundan tashqari Amir Temur Idilning Turotur kechuvi bo‘yida O‘rusxonning o‘g‘li Quyrichoq o‘g‘lonni chaqirtirib, unga qo‘lga kiritilgan Sobiq Jo‘ji ulusini in’om etadi. Rossiya tarixchilari Grekov va Yakubovskiy larning yozishicha Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi, faqat Markaziy Osiyo uchun emas balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek tarqoq Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan. Amir Temurning keyingi yurishlari 1398-1399 yillarda Hindistonga qaratildi. Bu yurishlar qariyb o‘n bir oy davom etadi. Amir Temur Hindistondan katta o‘lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytadi. Amir Temurning 1399-1404-yillarda Shomning Halab, Xums, Baalbek, Damashq kabi yirik shaharlari, va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi bilan Bag‘dod shuningdek Turkiyaning katta qismini zabit etadi. Sulton Boyazid o‘limidan keyin uning o‘g‘li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinlaydi. Amir Temur Turkiyani o‘ziga tobe etmaydi chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun Amir Temur Usmonli Turklar davlatini saqlab qoladi. Amir Temurni g‘alaba bilan tabriklab, Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli

Genrix IV, maxsus maktub yuboradi. Amir Temur butun Yevropning xaloskoriga aylangan edi. [5:115,120-b] Temur davrida elchilik munosabatlari rivojlanib, asli Keshlik bo‘lga Muhammad al Keshiy Kastiliya qiroli Genrix-III huzuriga boradi. Abdulla Keshiy esa Misrga Faraj huzuriga jo‘natiladi. [6:21,47-b]

Temur biror bir shaharni egallamoqchi bo‘lsa, shahar zabit etilishidan oldin turli hiylar yordamida dushman askarlari sarosimaga solingan. Qal'a devorlari yaqinida majanaqlar qurilib g‘altaklar ustiga o‘rnatilgan arrodalar tiklanib, qamaldagilarga qarata har tarafdan toshlar, irg‘itilgan. Ra'dlar ishga solingan. Borular ostidan naqblar kavlangan. [7:31,32,33,34,35-b] Temur va Temuriylar davrida fan, madaniyat, san'at yuksak taraqqiy etadi. Jumladan Temur va Temuriylar davrida zarb etilgan tangalar yuksak ahamiyatga va qadrga ega edi. Jumladan tangalarning hammasini old tomonida Qur'ondan kalima va to‘rt xalifaning nomi keltirib o‘tilgan edi. Jumladan Temuriy shahzoda Ulug‘bek zarb ettirgan tangalar “Fulusiy” deb nomlanib, misdan yasalgan, Ulug‘bek zarb ettirgan tangalari butun dunyoda mashhur edi. Buning birdan bir sababi esa u hech qachon o‘z nomi bilan tanga zarb ettirmagan, zarb ettirgan hamma tangalari bobosi Amir Temur nomi bilan zarb ettirilgan. Asosan tangalar Buxoroda zarb ettirilgan. 1428-29-yillarda Buxoroda zarb etilgan tangalar Samarqandda zarb etilgan mis pullar bilan almashtirilib muomalaga kiritilgan. [8:11,12,24-b]

Amir Temurning diniy bag‘rikenglik siyosatiga shunday dalil keltiramiz: Askarlari ichida turli din va mazhablarga e’toqod qiluvchi kishilar mavjud bo‘lgan. Temur islom rahnamosi bo‘lsa ham o‘z qo‘l ostidagi boshqa din vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lgan. [9:13,14,15-b]. Amir Temurga har bir zafarli voqeа sevinch va hodisani muhtasham me’morchilik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, She’roz, Isfahon va Damashqning mashhur hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat va inshootlar bino qilganlar. Amir Temur o‘zi zabit etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag‘dod, Darband, Baylaqонни) qayta tiklaydi. Amir Temur Samarqandda juda

ko‘p bog‘lar barpo ettirgan va bu bog‘lardagi saroylarda diplomatik elchilar kutib olingan. [10:115,120-b] Me’morchilik va obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo‘lib, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdiradi. Amir Temur Eron, Turk, Arab davlatlari tarixini mukammal bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan har qanday masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. U davrida to‘kin sochinlik bo‘ganini bevosita biz Klavixo kundaliklaridan bilib olamiz. Ispan elchisi Klavixo Samarqand bozorlarida bug‘doy va guruchning mo‘lligi va arzonligi haqida gapirib, Shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini atlas, kimxob, har xil jun to‘qima mollar, mo‘ynali va ipakli po‘stinlar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ta’kidlaydi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatic aloqalar o‘rnatadi. [11:245,250-b]

Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng O‘rta osyodagi eng mashhur kutubxonani Boyso‘ng‘ur Mirzo qurdiradi. Kutubxona bilan birgalikda bu yerda kitoblar ta’mirlaydigan ustaxona ham bor edi bu yerda 40 ta xattot faoliyat yuritgan bo‘lib bu yerda eng qadimgi qo‘lyozmalar qaytadan ko‘chirilardi va yangi xattotlik yozulari yaratilardi. Boysung‘urning o‘zi miniaturalar chizar edi. [12:562-b] Shoxrux va Ulug‘bek Gavharshodbegimlar xattotlik va miniatura san’atini targ‘ib etadilar. Masjid madrasalar qurdiradi, 1447-yilda hokimiyatga kelgan Ulug‘bek ilf fan va san’atni targ‘ib etadi, Observatoriya qurdiradi va u hozir ham Samarqandda mavjuddir. Astronomiya va matematikaga kata urg‘u beradi. Uning davrida madaniyat va til forsiy va sharqiy turk tilida rivojlanadi. Undan keyin Hirotda Husayn Boyqaro davrida temuriylar davri madaniyati va san’ati gullab yashnaydi. [13:98-b] Amir Temur, uning siyoshi va faoliyati xususida ko‘plab asarlar yozilgan. Ular ichida “Amir Temur va Fransiya” kitobi o‘zbekistonlik huquqshunos olim professor Akmal Saidov hamda taniqli fransuz sharqshunosi Merhum Lyusen Kerin tomonidan yozilgan va 1996-yilda chop etilgan asarning to‘ldirilgan va qayta ishlangan

ikkinchi nashridir. Butun dunyoda ayniqsa Yevropada Amir Temur va Temuriylar tarixiga nisbatan yuksak qiziqish keng ochib berilgan.

Bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Amir Temurga bag'ishlab yozilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 900 dan ziyod bo'lsa sharq tillaridagi asarlar soni 1000 dan oshadi. G'arbning yirik 7 ta yirik davlatidagi 10 ta muzeyda, xususan Buyuk Britaniyadagi Viktoriya va Albert hamda London, Kopenaggen, Parijdagi Luv, Nyu-Yorkdagi Metropoliten va San Fransiskodagi Osiyo san'ati Turkiyadagi To'pqopi saroyi hamda Istanbuldagi Turk va islom asarlari muzeylari Rossiyadagi Ermitaj Germaniyadagi Amaliy san'at muzeylarida saqlanayotgan Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid bir necha o'nlab noyob osori-atiqa haqida qimmatli ma'lumotlar taqdim etilgan. Binobarin taniqli sharq mualliflari asarlarining tarjimalariga tayanib g'arbda xususan Yevropada XVI asrdan boshlab, Amir Temurga doir salmoqli asarlar paydo bo'ladi. Bu asarlarning barchasi XVI-XIX asrlarda Yevropa so'ng Amerika badiiy madaniyatiga Amir Temur hayoti faoliyati, falsafiy va siyosiy yo'rig'ining keng tarqalishida Sohibqiron Temur siyosini ijodiy idrok etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. [14:67,78,90,110-b] Hozirgi zamon fransuz sharqshunoslарining Amir Temur va Temuriylar haqidagi asarlaridan namunalar Jan Oben, Jan Pol Ru, Lyusen Keren, Frederik Bopertyul-Bressan, Jan-Lui Grammon, Terri Zarkon asarlarida uchratamiz.

Qisqacha xulosa qilib aytishimiz mumkinki Temur va Temuriylar davrida o'zgacha bir boshqaruв tizim, madaniyat, san'at yaratildi. Hatto diplomatiya va elchilik munosabatlari takomillashtirildi. Buning natijasini biz hozirgi kunda Temurning har bir sohaga oid qilgan ishlarni yoritib beruvchi turli xil xorijiy va mahalliy asarlarda ko'ramiz. Temurning Hindistondagi harbiy yurishlaridan 123-yil o'tib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solingani ham uning shaxsiyati kata o'rnak bo'lganligidan guvohlik beradi. Hali-hanuzgacha Temuriylar davri hukmronligini keng miqyosda yoritib berish ustida xorijda va yurtimizda ilmiy va amaliy ishlar davom etmoqda. Birgina Temur Tuzuklari orqali hozirgi davlat

boshqaruvi va ijtimoiy sohaga oid bo‘lgan takomillashgan tizimni kuzatamiz, konstitutsiyamiz buning yaqqol misolidir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1] Yunusxon Hakimjonov fors tilidan tarjima. Nizomiddin Shomiy.Zafarnoma. Toshkent. Kamalak-1996.
- [2] Alimov R. A. Sohibqiron Amir Temur Toshkent-1995.
- [3] Zahiriddin Muhammad Bobur.Boburnoma.Toshkent-1960.
- [4] Amir Temur jahon tarixida Parij-1996.
- [5] Muiz an-ansab (Прославляющее генеолги),, Введение перевода с персидского языка премехания подгатовка факсимиле к изданию Алматы Дайк "Пресс, 2006.
- [6] Shohistaxon O‘ljayeva.Amir Temur Diplomatiyasi. Ijod –Press Toshkent-2018.
- [7] H. Dadaboyev.Amir Temurning harbiy mahorati.Toshkent.Yozuvchi-1996.
- [8] I. To‘xtiyev.Temur va Temuriylar sulolasining tangalari. Toshkent
- [9] Ibn Arabshoh. Ajoyib al-Maqdur fi Tarixi Taymur.Toshkent.Mehnat-1992.
- [10] История Казахстана в Персидских источниках"Алматы.Дайк Пресс.2006
- [11] Klavixo kundaligidan parchalar” Toshkent -2001.
- [12] S.Frederick Star. Lost enlightenment Princeton University press Princeton and Oxford 2013.
- [13] Peter B. Golden Central Asia in World History. Oxford University press-2011.
- [14] I.Keren.Amir Temur va Fransiya. Toshkent. Adolat-1996.